



## XALQ DEPUTATLARI TOYLOQ TUMANI KENGASHINING QARORI

2024-yil 30-mart

VI-89-34-7-104-K/24

Toyloq tumani

**Tumanda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanish bilan yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholi bandligini ta’minlash hamda aholiga qulay shart-sharoitlar yaratishni ta’minlashga qaratilgan ustuvor vazifalar to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2024-yil 16-yanvardagi “2024-yilda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash bo‘yicha Vazilar Mahkamasi hamda vazirlik idoralarining ustivor vazifalari”ga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida berilgan topshiriqlar ijrosini ta’minlash maqsadida, tumanda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanish bilan yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholi bandligini ta’minlash hamda aholiga qulay shart-sharoitlar yaratishni ta’minlashga qaratilgan ustuvor vazifalar yuzasidan tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rnbosari J.Xujamurodovning hisoboti eshitilib, deputatlar, sessiya ishtirokchilarining taklif va fikr mulohazalari tinglanib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashining sakson to‘qqizinchi sessiyasi

### QAROR QILADI:

1. Tumanda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanish bilan yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholi bandligini ta’minlash hamda aholiga qulay shart-sharoitlar yaratishni ta’minlashga qaratilgan ustuvor vazifalar yuzasidan tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rnbosari J.Xujamurodovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining o‘rnbosarlari (J.Xujamurodov, B.Sanaqulov), tuman Soliq inspeksiyasi (Sh.Sharipov)larga:

hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturiga muvofiq investisiya loyihalarini, mahalliy lashtirish dasturi doirasidagi loyihalarni amalga oshirish hisobidan tushumlarni oshirish;

tumandagi tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar evaziga ishga tushgan korxonalar tahlili bo‘yicha, tumanda bo‘sh turgan binolar va yer maydonlarini savdoga chiqarib, sotish choralarini ko‘rish;

haftada bir marotaba tahliliy ma'lumotlar tayyorlash, yashirin iqtisodiyotga qarshi aniq zarur chora-tadbirlar ko'rish (sanoat, savdo, xizmat ko'rsatish hamda qishloq xo'jaligi sohasida);

mahalladagi xonadonlarni yer uchastkalaridan foydalanish darajasi, oilalarning daromad manbaalari, daromadli mehnat bilan shug'ullanishga bo'lgan qiziqishlarini xonadonbay o'rganish va kreditga bo'lgan ehtiyojlarini yo'nalishlar bo'yicha shakllantirish;

mahallalarda mavjud tadbirkorlarning muammolarini yechishga hamda iqtisodiy o'sishning drayver sohalarida yangi tadbirkorlik loyihamonlari amalga oshirishga ko'mak berish;

tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagida bo'lgan fuqarolarga biznes loyihamonlari tayyorlashda konsultativ ko'mak berish va uni amalga oshirish jarayonlarini doimiy monitoringini qilib borish;

tumanda joylashgan bozorlardagi narx-navo barqarorligini ta'minlash yuzasidan haftada bir marotaba tahliliy ma'lumotlarni tuman hokimiga kiritib borish;

tumanda uzoq muddatga ketgan oylik maoshi kam bo'lgan fuqarolarni qaytarish hamda yuqori maosh oladigan joylarga joylashtirish choralarini ko'rish;

har bir eksportyor bilan alohida shug'ullanish va ularni muammolarini o'z vaqtida bartaraf etishda amaliy yordam berish natijasida eksport xajmlarini ortirib bajarish chorasi ko'rish vazifalari yuklatilsin.

3. Tuman hokimining birinchi o'rribosari (J.Xujamurodov), tuman hokimining o'rribosari Oila va xotin qizlar bo'limi boshlig'i (N.Kambariddinova), tuman Soliq inspeksiyasi (Sh.Sharipov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi (A.Sharipov), tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi (J.Tursunov) hamda tumandagi tijorat banklari va mahallalarga biriktirilgan hokim yordamchilari bilan birgalikda:

bank kreditlari hisobiga ishga tushirilgan va bugungi kunda past quvvatlarda ishlayotgan korxonalar bo'yicha sabablarni aniqlab, ularning to'liq quvvatda ishlashiga amaliy yordam ko'rsatish choralarini ko'rish;

kreditlarni ustuvor ravishda dasturlar bo'yicha avval kreditlardan foydalanmagan aholi va tadbirkorlik subyektlariga ajratish choralarini ko'rish;

sektor rahbarlari bilan birgalikda aholini ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va servis, tikuvchilik, parrandachilik, bog'dorchilik, asalarichilik, chorvachilik va baliqchilik yo'nalishlarida bandligini ta'minlash yangi ish o'rni yaratish choralarini ko'rish;

oilaviy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish istagida bo'lgan fuqarolarga imtiyozli bank kreditlarini ajratishda muntazam yordam berish;

"Temir daftari", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"ga kiritilgan fuqarolarga daromadli mehnat bilan band qilish yoki ularni doimiy mehnat bilan bandligini ta'minlash (ish o'rnlari yaratish)ga qaratilgan loyihamonlarga yo'naltirilishida mahallalardagi hokim yordamchilari mas'uliyatini oshirish chorasini ko'rish;

dasturlar doirasida mahallalarga biriktirilgan hokim yordamchilarining tavsiyanomalariga asosan moliyalashtirilgan loyihalarni har oy yakuni bo'yicha maqsadlilagini monitoring qilib borish vazifalari yuklansin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati (N.Raxmatova), "Qo'shchinor" gazetasi tahririysi (M.Yuldasheva)ga sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositasi hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (A.Mirzayev) hamda tuman hokimining birinchi o'rinnbosari (J.Xujamurodov) zimmalariga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Sessiya raisi



YULDASHOVA  
MUTABAR  
ABDUMANONOVNA